



## SO‘Z-GAPLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Shodmonova Gulhayyo Shavkat qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya va tillarni o‘qitish:  
o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqola tilimizdagi so‘z-gaplarning pragmatik ma’nosi haqidadir.*

**Kalit so‘zlar:** *So‘z-gaplar, tinish belgilari, modallik, bog‘lama, o‘zbek tilshunosligi, formal tilshunosligi va h.k.*

So‘z-gaplar umumiy atamasi ostida birlashtiradigan so‘zlarning alohida belgilari mavjudki, ular shu belgisi bilan mustaqil yordamchi so‘zdan, shuningdek, yoxud qo‘shma gapdan farq qiladi. Bular quyidagilar:

1. Mustaqil holda gap bo‘la olishi
2. Gap tarkibida shu gapning biror bo‘lagi bilan sintaktik aloqaga kirisha olmaslik.
3. O‘ziga xos g‘ayrioddiy ma’noga ega bolish;
4. Bog‘lamalar bilan birika olmasligi va shuning uchun mayl, zamon, shaxs/son shakllariga ega emaslik.

O‘zbek tilshunosligida so‘z gapning mohiyati, turlari ularning leksik material tavsifi, qo‘llanilish xususiyati empirik asosda yetarlicha o‘rganilgan. Substansiyal yondashuvda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPm] sifatida qayd etilgach, ziddiyatli izohtalab nuqtalariga ega bo‘lgan so‘z-gapga ham “lison-nutq” tamoyili asosida yondashish zaruriyati paydo bo‘ldi va har bir gapning o‘z qolipi mavjud bo‘lgani kabi so‘z-gapning ham o‘ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish modeli bolishi shartligi e’tirof etildi.

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish, taqlid so‘z turkumlari gapning istalgan biri bo‘lagi vazifasida kela olsa, so‘z-gap vazifasida kela olishiga xoslangan, bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama esa sintaktik aloqaga xoslanmagandir.

O‘zbek formal tilshunosligida so‘z gaplarning mohiyati, turlari, ularning leksik material tavsifi qo‘llash xususiyatlari empirik asosida yetarlicha o‘rganilgan. Shakl vazifaviy tilshunoslikda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPm] sifatida talqin qilingach ziddiyatli, izohtalab nuqtalarga ega bo‘lgan so‘z gaplarga ham nutq ixtilofi nuqtayi nazaridan yondashish zarurligi ayon bolib qoladi va har bir gapning til bosqichida o‘z qolipi mavjud bo‘lgani kabi so‘z gaplarning ham o‘ziga xos muayyan bir hususiyati, qolipi mavjud bolishi shart va zarurligi e’tirof etildi.



Bo‘laklarga ajratilmaydigan gaplar yoki so‘z-gaplar umumiy atamasi ostida birlashtiriladigan gaplarning alohida belgilari mavjudki, ular shu belgilari bilan mustaqil so‘zlardan, yordamchi so‘zlardan, sodda yoxud qo‘shma gaplardan farq qiladi.

So‘z-gaplar o‘z ichida bir necha ma’noviy guruhga ajratiladi.

1. Moddalar
2. Undovlar
3. Tasdiq inkor so‘zlar
4. Taklif-ishora so‘zlar

So‘zlovchining bayon etilayotgan fikriga munosabati - qat’iy ishonch, gumon, taxmin kabi ma’nolarni ifodalab keladigan so‘zlar modal sozlardir. Ularga *xullas, demak, hammasi, tabiiy, ehtimol, shubhasiz, ehtimol* kabi so‘zlar misol bo‘la oladi va bu farmal tilshunosligimizda batafsil o‘rganilgan.

Kishilarning his-tuyg‘ulari, haydash, to‘xtatish, kabi xitoblarni buyruqlarni ifodalaydigan so‘z-gaplarning ko‘rinishi undov so‘zlardir. His-tuyg‘u undovlariga *barakalar, rahmat, ofarin* kabi so‘zlar, buyruq-xitob undovlariga *pisht, beh-beh, pish-pish, chuh* kabi xitob so‘zlar kiradi.

[W] - lashgan (so‘z-gaplashgan) so‘z-gaplar o‘z semantik funksional xususiyatlari bilan har xil guruhining markaziy leksemalariga juda yaqin turadi, lekin o‘z aloqasini boshqa turkum so‘zlardan to‘la-to‘kis uzmagan bo‘ladi.

[W] - simon (so‘z-gapsimon)lar deganda mohiyatan so‘z-gaplar bo‘lmagan lug‘aviy birliklarning so‘z gap sifatida kelishi tushuniladi. Jumladan modalsimonlarga *shunday qilib, baxtga qarshi, tovba xudo saqlasin* misol bo‘la oladi.

So‘z gaplarning sintaktik xususiyati yuqorida ta’kidlaganimizdek ularning kesimlik qo‘shimchalarini qabul qilmasligi, bog‘lama bilan birika olmasligidir so‘z-gaplar ham undalmalar, sodda gaplar kabi kengaygan yoyiq holatlarda bo‘lishi mumkin.

- ★ Cho‘lni o‘zlashtirgan mardlarga ofarin! (Abdulla Qahhor)
- ★ Falakning dastidan dod! (Hamza)
- ★ Barakalla, sizga!

Misollarda ko‘rinib turganidek so‘z-gaplar faqat bitta so‘zdan iborat bolmay, nutqda kengayish qobiliyatiga ham ega. So‘z-gaplarning yana bir sintaktik xususiyati shundaki, [WPm] qurilish gaplarda kesimlik kategoriyasi va manosi [W]ga [Rm]orqali kiritiladi, [m]ning esa o‘zbek tilida juda kop ko‘rsatkichlari mavjud. Ammo so‘z-gaplarda bunday emas. Har bir so‘z-gap shu gapga xos bo‘lgan ma’nolarni ifodalashga xoslangan boladi. Chunonchi, *ha* so‘zi tasdiqni ifodalaydi uning bo‘lishsizligi *ha emas* bilan emas balki alohida



so‘z *yo‘q* bilan ifodalanadi. *Albatta* yoki *shubhasiz* modali qat‘iy ishonchni va tasdiqni ifodalaydi, inkor ma‘nosi *mutlaqo*, *aslo* so‘z-gaplari bilan beriladi.

So‘z-gaplar butun bir kontekstda yaxlit bir ma‘no anglatadi; ular har bir gapda turlicha nutq vaziyatidan kelib chiqib, ma‘no anglatadi. Bu misollarni “Ikki eshik orasi” romani tahlilida ko‘ramiz.

1. Mayli armaturalarni uchma-uch ulasa ham boladi. Lekin “A-1” ingichka armatura.

Ushbu gapda so‘z-gap kinoya ma‘nosida kelgan.

2. Voy, Robiyahon! - dedi zinalardan lo‘mbillab tusharkan (hayrat)
3. – E, qilig‘ing qurmasin (g‘azablanish)
4. – Voy o‘lsin! – Fotima kelin qiqirlab kuldi. (parvo qilmasdan kulish)
5. – Ha, sizmisiz, Ochilboy! Sedi sekin ohangda Zuhra kelin. (tasdiq)
6. – Voy, Gamletning aybi yoq edi-ku? (achinish)
7. – Robiya!... - kimsan akamning ovozi titrab ketdi. – E, - qo‘lini yelkamdan olib tashladim. (uyalish)
8. – Eee, shuning uchun qachon qarasa, kesak titkilab yurarkansanda. (jig‘iga tegish)
9. – E, xom-ku, unisi! (g‘azab)
10. – Vo‘y-bo‘! Bunaqa shirin uzumni umrimda yemaganman (taajub)
11. – Yo‘q! Yo‘-o‘q – oyim cho‘kkalab qoldi (qo‘rquv)
12. – Voy, sizga nima bo‘ldi? – dedi ovozi titrab (ajablanish)
13. – Voy! Qayoqdan olding? (ajablanish)
14. – Voy, dadasi, o‘zingizniki-yu! (g‘azab)
15. – Sizdan bir narsa so‘ray? – Albatta bolam so‘ra (tasdiq)
16. – Hayriyat, Muzaffar tirik ekansan! (quvonch)